

YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA IQBOL MIRZO SHE'RIYATINING AHAMIYATI.

Feruza Anorboyzoda
JDPI o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi magistranti.

Annotatsiya. Maqolada yoshlar tarbiyasining dolzarb masala ekanligi aytiladi. Bu jarayonda, xususan she'riyatning, Iqbol Mirzo lirikasining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: *yoshlar, tarbiya, Vatan, she'riyat, vatanparvarlik, millat, dasturxon, belbog', beshik, milliy g'urur.*

Аннотация. В статье говорится, что обучение молодежи является актуальной проблемой. В этом процессе обсуждается важность поэзии, в частности лирики Икбала Мирзо.

Ключевые слова: *юность, воспитание, Родина, поэзия, патриотизм, нация, скатерть, пояс, колыбель, национальная гордость.*

Annotation. The article says that educating young people is a topical issue. In this process, the importance of poetry, especially the lyrics of Iqbal Mirzo, is discussed.

Key words: *youth, upbringing, Motherland, poetry, patriotism, nation, tablecloth, belt, cradle, national pride.*

Hamma zamonlarda ham yoshlar millat suyanchi, xalqning tayanchi bo'lib kelgan. O'zining kelajagini o'ylagan har qanday millat, avvalo, yoshlar tarbiyasiga katta e'tibor qaratadi. Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda yoshlar ta'lim- tarbiyasi, ayniqsa, dolzarb masalalardan biridir. Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning bu boradagi fikrlari yuksak ahamiyatga molikdir. "Bizni hamisha o'ylantirib keladigan muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi , yurish-turishi , bir so'z bilan aytganda , dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan

kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz , degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya , tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”.¹

Qadim zamonlardan ajdodlarimiz ta‘lim usulida ham, tarbiya usulida ham asosiy vosita sifatida she‘riyatdan foydalanib kelishgan. Pandnoma, jangnoma, zarbulmasallar, topishmog‘-u tezaytishlarning she‘riy yo‘lda bitilganligi so‘zimizning dalilidir . Chunki she‘riyat ta’sirchanligi tufayli to‘g‘ri yurakka yo‘l oladi. Inson yuragiga yetib borgan har qanday ta’sir uning xotirasida ham bir umrga muhrlanadi. Natijada, so‘z mag‘zida neki bo‘lsa , qalb o‘sha bilan tarbiyat topadi. Avvalambor, tarbiyaning o‘q ildizi oilaga borib taqaladi. Yosh avlodni vatanparvarlik, el-u yurtga muhabbat, millat rivojida mardonalik, xalqqa nafi tegadigan komil inson qilib o‘stirish o‘qituvchi-pedagoglarning zimmasidadir. Iqbol Mirzo lirikasida ham ana shunday g‘oyalarga yo‘g‘rilgan she‘rlar salmoqli o‘rinni tashkil etadi. Shoirning “Asragil”, “Aytgil do‘stim, nima qildik vatan uchun? ”, “O‘zbek o‘g‘li”, “ Qaram bo‘lmas o‘zbek”, “Ona tuproq” kabi she‘rlari shular jumlasidandir.

“Aytgil, do‘stim, nima qildik vatan uchun? “ she‘rining, butun mazmuni uning sarlavhasiga singdirilgan. She‘rni o‘qigan har qanday o‘quvchi bir bora bo‘lsin shu savolni o‘ziga , o‘z ichki "men"iga bermay o‘tmaydi. Berar ekan, javobni ham dastlabki misralardanoq topadi. Jumlaning har bandning oxirida takrorlanishi esa naqarotdek inson xotirasiga o‘rnashadi :

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,
Seni guldek erkalagan chaman uchun.
Osmonlarda yurgan bo'lsang, tuproqqa qayt,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning hikmatlari sahifasi.-Ma‘naviyat.uz.2019.

Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,
Ulug' inson boshlab bergan shu yo'l uchun,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

She'ning uchinchi bandida yengil hayot dardida vatanni tark etgan
vatangadolar qoralanadi :

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?
Don axtargan go'shtxo'rlarga yem bo'ladi.
Dil qonasa, ona tuproq em bo'ladi,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

She'ning so'ngida esa ijodkor barchani sergaklikka chorlaydi. Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen deya shiddatli zamonda mudramaslikka, G'afur G'ulom ta'biri bilan aytganda "Ulug' binoga bir g'isht qo'yishga"² ulgurib qolishga da'vat qiladi. O'quvchining shu paytga qadar "bosgan izi "qaysi yo'llarda qolayotgani, endilikda esa qaysi yo'ldan yurishlikni, qanday yurishlikni uqtiradi. Bu da'vat kelajak sari ildam odimlayotgan yoshlarning shuurida, shubhasizki, chuqur joylashadi:

Buncha bino qo'yma zarrin choponlarga,
Saratonda yaproq bo'lg'in dehqonlarga,
Suyangani tayoq bo'lg'in cho'ponlarga,
Aytgil , do'stim, nima qildik Vatan uchun

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Iqbol Mirzoning yana bir she'rida shoirning Vatan ichra kichik Vatan atalmish tug'ilib o'sgan zaminiga bo'lgan mehr-muhabbati va sog'inchi go'zal tarzda tasvirlangan:

Eng go'zal mamlakat – Qo'shtegirmonda

² G'.G'ulom. Tanlangan asarlar. Toshkent: 2003.-B.60

Mensiz oqarar tong, oqadi suvlar...
Tushlarini suvlarga sochadi tongda
Onhazratning qizlaridek suluvlar...

Shoir mazkur misralarda inson uchun eng qadrdon go'sha – o'zi tug'ilib o'sgan tuproq , hamisha ko'ngli talpinib turadigan maskan ekanligini ifodalaydi. Ijodkor o'zi tavallud topgan Qo'shtegirmon qishlog'ini “Eng go'zal mamlakat” deb ataydi. Zero, inson uchun dunyoda bolalik kunlari o'tgan , bag'rida o'ynab o'sgan zamindan ham go'zalroq joy bo'lishi mumkinmi? Axir Vatan ostonadan boshlanadi. Vatanga bo'lgan muhabbat ham, yuqorida ta'kidlaganimizdek, oila bag'rida shakllanadi. Vatan tushunchasini teran anglamoq uchun, inson oldin o'z uyini, o'z oilasini, tug'ilib o'sgan maskanini sevmog'i kerak. Buyuk Vatanga muhabbat ana shu kichik maskanga bo'lgan mehrdan boshlanadi.

Iqbol Mirzo qay mavzuda qalam tebratmasin, albatta, unda Vatanga muhabbat, el-u yurtga bo'lgan cheksiz hurmat va sadoqat tuyg'ulari mujassam bo'ladi. Ijodkor O'zbek yigitlariga qadimdan or-nomusli, oila sha'nini asrab-avaylovchi, avlodning davomchisi sifatida qaraladi. "O'zbek o'g'li" she'rida millatning zabardast o'g'lonlariga murojaat qiladi:

Ikki daryo o'rtasida keng dasturxon
Tuz totgansan, tuzlig'ingni unutm
Dasturxonni belbog' qilib o'stirgan
O'zbek o'g'li, o'zligingni unutm!

Belbog' - mardlik belgisi. Lafzida turuvchi, bir so'zli yigitlarga “belida belbog'i bor” iborasining ishlatilishi ham shundan. O'zbekistonga ikki daryo oralig'i deb ham ta'rif beriladi. Bu o'rinda shoir “dasturxon” va “ belbog'” dan detall sifatida ustalik bilan foylagangan bo'lib, asl mazmun el xizmatiga belni mahkam bog'lashga da'vatdir.

Bo'shamasin zinhor yog'och beshiging,
Qulf ko'rmasin darvoza-yu eshiging.
Yig'ilmasin supadagi to'shaging,
O'zbek o'gli, o'zligingni unutm!

Sheʼrning ushbu bandida ham milliy qadriyatlarimiz yaqqol koʻzga tashlanadi. "Yogʻoch beshik" orqali bolajon xalqimizga, ikkinchi misrada uning mehmondoʻstlik va olijanoblik fazilatlariga ishora bor. Muhammad Yusufning "Oʻzbek" sheʼridagi " Toʻshak yetmay toʻnin toʻshaydi oʻzbek"³ misralariga hamohang tarzda Iqbol Mirzo ham "Yigʻilmasin supadagi toʻshaging" deya mehmondoʻstlik, qarindosh-urugʻlar, ogʻa-inilar oʻrtasidagi mehr-oqibat kabi qadriyatlarimizni ulugʻlaydi.

Nochor qolsang nokas qoʻlini tutma

Arslonsan-ku tulki yoʻlini tutma.

Oʻzingdan oʻzgan marhamat kutma,

Oʻzbek oʻgʻli oʻzligingni unutma!

Soʻnggi satrlarda shoir oʻzbek eli oʻziga bek el, ogʻir kunda ham birovga qaram boʻlmagan xalq ekanini taʼkidlar ekan, ey oʻgʻlon, sen ham arslondek mard boʻl , tulkilarga qaram boʻlish oʻzligimizni yoʻqotish bilan barobardir degan gʻoyalarni ilgari suradi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, Iqbol Mirzoning sheʼriyati yoshlarda oʻzlikni anglash, milliy gʻurur, milliy iftixor tuygʻularini uygʻotuvchi gʻoyalar chashmasidir. Bu buloqdan qoniqib suv ichgan har bir yosh avlod,Vatan kelajagining chinakam vatanparvar egalari boʻlishligiga shubha yoʻq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning hikmatlari sahifasi.- Maʼnaviyat.uz.2019.
2. Iqbol Mirzo. Sizni kuylayman. T.:Sharq, 2007.
3. Iqbol Mirzo. Aytgil, doʻstim nima qildik Vatan uchun? T.:Sharq, 2014.
4. Gʻ.Gʻulom. Tanlangan asarlar. T: 2003.
- 5.Мухаммад Юсуф. Сайланма. Т: Sharq, 2017

³ Мухаммад Юсуф. Сайланма. Тошкент: Sharq, 2017 – Б.178